UZBEKISTAN STATE WORLD LANGUAGES UNIVERSITY

WORLD LITERATURE

ISSN 3060-4559

UO‘K (UDC, УДК): 821.112.2

NEMIS YOZUVCHISI HERTA MYUELLER ASARLARIDA BADIIY DETALLAR POETIKASI[1]

Mamatov Ravshan Rustamovich

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
Namangan, O‘zbekiston
E-mail: ravshanbek-mamatov@mail.ru

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Nobel mukofoti sovrindori nemis yozuvchisi Herta Myeller asarlaridagi badiiy detallar poetikasi tahlilga tortiladi. Badiiy asar qahramonlarining tashqi qiyofasidan tortib, ichki kechinmalari, o‘y-hayollarigacha chizib beradigan hamda asarning mazmun-mohiyatini ochib beradigan asosiy komponent bu badiiy detaldir. Badiiy detal vositasida muallif butun borliqni, shamolni, yomg‘irni, jilg‘ani hatto yaproqni so‘zlata oladi.

Muyeller asarlarini kuzatar ekanmiz unda boshdan-oxir dardli kechinmalarning guvohi bo‘lamiz. O‘zbek adibi O‘tkir Hoshimov har bir asar dardning mahsuli bo‘lishini aytib, muallif mana shu dardni asarda aks ettirish uchun badiiy detallardan mahorat bilan foydalanishi lozimligini ta’kidlaydi. Ma’lumki, har qanday badiiy asarda muallif tomonidan turli detallar turli maqsadlarda ishlatiladi va ular asar badiiyligini oshirishga xizmat qiladi. Myeller asarlarida badiiy detallar tasvirga jiddiy e’tibor qaratilgan va narsa, holat detallari vositasida qahramonlarining ichki tuyg‘ulari va ruhiyatini ishonarli tasvirlangan.

KALIT SO‘ZLAR

Roman, poetika, badiiyat, badiiy detal, tasvir, his-tuyg‘u, kechinma, narsa va holat detallari, voqeiylik.

Received: September 13, 2024
Accepted: October 5, 2024
Available online: November 15, 2024

Copyright © 2024 by author(s).
This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).
http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/

[1] **Iqtibos keltirish uchun (For citation, для цитирования):**
Mamatov R. R. Nemis yozuvchisi Herta Myueller asarlarida badiiy detallar poetikasi. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2024. — Vol.1, № 4. — B. 230-239.

ПОЭТИКА ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ДЕТАЛИ В ПРОИЗВЕДЕНИИЯХ НЕМЕЦКОЙ ПИСАТЕЛЬНИЦЫ ГЕРТЫ МЮЛЛЕР

Маматов Равшан Рустамович

докторант Наманганского государственного университета
Наманган, Узбекистан
E-mail: ravshanbek-mamatov@mail.ru

АННОТАЦИЯ

В данной статье будет проанализирована поэтика художественной детали в творчестве лауреата Нобелевской премии - немецкой писательницы Герты Мюллер. Художественная деталь – это основная составляющая, соединяющая внешний вид героев художественного произведения с их внутренними переживаниями и мыслями и раскрывающая смысл произведения. С помощью художественных деталей автор может описать всю полноту окружающего мира, включая ветер, дождь, траву и даже листву.

Когда мы обращаемся к произведениям Мюллер, то сталкиваемся с тем, что в них от начала до конца отражаются болезненные переживания. Узбекский писатель Уткир Хашимов говорит, что каждое произведение – это продукт боли, и подчеркивает, что автор должен умело использовать художественные детали, чтобы передать эту боль в произведении. Известно, что в любом художественном произведении различные детали используются автором для разных целей и служат повышению его художественности. В произведениях Мюллер серьезное внимание уделяется художественным деталям как составляющим образа, а через предметные и сюжетные детали убедительно изображаются внутренние переживания и психология её героев.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Роман, поэтика, искусство, деталь, образ, чувство, переживание, предметные и сюжетные детали, действительность.

Received: September 13, 2024
Accepted: October 5, 2024
Available online: November 15, 2024

Copyright © 2024 by author(s).
This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).
http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/

THE POETICS OF ARTISTIC DETAILS IN WORKS OF THE GERMAN WRITER HERTA MUELLER

Mamatov Ravshan Rustamovich

Doctoral student of Namangan State University
Namangan, Uzbekistan
E-mail: ravshanbek-mamatov@mail.ru

ABSTRACT

This article will examine the poetics of artistic details in the works of the Nobel Prize-winning German writer Herta Meller. Artistic detail represents the primary component through which the appearance of the protagonists in a work of art is linked to their inner experiences and thoughts, thereby elucidating the essence of the work. By employing artistic details, the author is able to portray a comprehensive range of subjects, including the atmosphere, natural phenomena such as wind, rain, grass, and even individual leaves.

An examination of Mueller's works reveals a narrative are that is at once harrowing and unflinching in its portrayal of human experience. Uzbek writer O'tkir Hashimov posits that every work is a product of pain and asserts that the author should adeptly utilize artistic nuances to reflect this pain in the work. It is a well-established fact that any artistic work employs a variety of details for a number of different purposes, with the objective of increasing the overall artistry of the piece. In Myeller's works, artistic details are given significant attention, particularly with regard to the depiction of the inner feelings and psyche of his characters. This is achieved through the use of objects and situations that resonate with the characters' emotions and experiences.

KEYWORDS

Novel, poetics, art, detail, image, feeling, experience, details of things and situations, reality.

Received: September 13, 2024
Accepted: October 5, 2024
Available online: November 15, 2024

Copyright © 2024 by author(s).
This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).
http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/

KIRISH

Herta Myuller badiiy ijodini tadqiq etar ekanmiz, uning asarlari noodatiy tarzda yaratilganining shohidi bo‘lamiz. Yozuvchi shu usul orqali odamlar va narsalar o‘rtasidagi chigal munosabatlarni aks ettiruvchi adabiy metodni yaratganini ko‘rish mumkin. Muallif romanlarida, ya’ni u tuzgan matnlarda inson qiyofalari emas, balki narsalar va buyumlar asosiy rol o‘ynaydi. Xususan, kalitlar, chamadonlar, kakku soatlari, shaxmat donalari, mebellar, kiyimlar, zargarlik buyumlari, poyabzallar, rasmlar, kitoblar yoki shu kabi narsalar. Myuller kundalik hayotning ko‘zga tashlanmaydigan, sodda va shu bilan birga o‘ta murakkab obyektlariga e’tibor qaratadi. Shu jihatdan ham muallif asarlarini tadqiq qilar ekanmiz badiiy detallar poetikasiga to‘xtalib o‘tish lozim deb topdik.

Adabiyotshunoslik ilmidan ma’lumki, har qanday badiiy asarda muallif tomonidan turli detallar turli maqsadlarda ishlatiladi va ular asar badiiyligini oshirishga xizmat qiladi, ya’ni “Hayotni tipiklashtirishda, uni badiiy ifodalashda, qahramon xarakteri qirralarini ochishda, asar g‘oyasini ifodalashda, uning emotsional ta’sir kuchini oshirishda badiiy detallar katta rol o‘ynaydi”. (Boboyev T.. 2002, 74.)

Mahoratli yozuvchi o‘z asarida badiiy detallarga ko‘plab murojaat qiladi. Zero, detal muayyan yuz berayotgan voqelikni umumlashtirib, badiiy asarda xarakterlarning ochishga xizmat qiladiki, detal orqali asarning mazmun – mohiyati yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari detal asarning estetik qiymatini oshiradi va uning o‘quvchi ongiga kirib borish ta’sirini kuchaytiradi. Badiiy asarda uchraydigan har qanday predmet yoki chizgilar ham detal bo‘lib kelavermaydi. Detal, avvalo, “lo‘nda, aniq, yorqin va obrazli bo‘lib, asosan, tasvir obyektini sintezlashib ko‘rsatishga xizmat qiladi. Detal badiiy asar kompozitsiyasida o‘z o‘rnini topgandagina vazifasini o‘tay oladi. Badiiy asarga olib kirilayotgan hamma unsurlar birgalashib, aniq bir maqsadga, ya’ni xarakterni ochishga xizmat qiladi.

Mayerning fikricha, asarda keltirilgan detallar ramziy birlikni tashkil etuvchi doirani hosil qilgandagini uslubiy jihatdan aks etishi mumkin. Myuller o‘z asarlarida detallarni idrok etish va asar boshida keltirgan boshlamalari predmet va narsalar (matndagi) o‘rtasidagi ana shunday murakkab “doirani”ni ifodalaydi.(Maier H., 2008,

ASOSIY QISM

Badiiy asar qahramonlarining tashqi qiyofasidan tortib, ichki kechinmalari, o‘y xayollarigacha chizib beradigan hamda asarning mazmun-mohiyatini ochib beradigan asosiy komponent bu badiiy detaldir. Badiiy detal vositasida muallif butun borliqni, shamolni, yomg‘irni, jilg‘ani hatto yaproqni so‘zlata oladi.

Muyeller asarlarini kuzatar ekanmiz unda boshdan-oxir dardli kechinmalarning guvohi bo‘lamiz. O‘zbek adibi O‘tkir Hoshimov har bir asar dardning mahsuli bo‘lishini aytib, muallif mana shu dardni asarda aks ettirish uchun badiiy detallardan mahorat bilan foydalanishi lozimligini ta’kidlaydi.

Adabiyotshunos olim D.Quronovning fikricha, “Detal asarda tasvirlangan obrazning kichik bir qismi bo‘lib, detallarning birikuvi natijasida o‘sha obraz ko‘z oldimizda butun holda namoyon bo‘ladi. Badiiy detal ortida bir realiya mavjud, maishiy turmush va joy tafsilotlari, portret chizgilari va sh.k.” (Quronov D., 2007, 132.)

Detal asardagi badiiy tasvirni turli chizgilarda ifodalaydi. U voqelikni kuchaytiradi, ta’sirchanlikni oshiradi. Fikrimizning tasdig‘i sifatida Mueller asarlaridagi parchalarni tahlilga tortdik. Masalan, adibaning “Atemschaukel” (Nafas olish-nafas chiqarish) romani Sovet Ittifoqining Stalinistik rejimi tomonidan Ruminiyadagi etnik nemislarning ta’qib qilinishi va 1945-yil va undan keyin sovet askarlari tomonidan Ruminiyalik nemislarning majburiy mehnat uchun Sovet Ittifoqiga surgun qilinishi haqida hikoya qilinadi. Roman 17 yoshida Novo-Gorlovkadagi Sovet majburiy mehnat konslageriga surgun qilingan va besh yil yashagan Transilvaniyadagi Sibiulik Leo Oberg yigitining u yerdagi hayoti haqida hikoya qiladi. “Atemschaukel” romanidagi “qora chamadon (sumka)” tasviri romandagi voqealarga uyg‘un tarzda keltiriladi:

*Die Nacht packt ihren **schwarzen Koffer** gegen meinen Willen, das muss ich betonen. Ich muss mich erinnern gegen meinen Willen. Und auch wenn ich nicht muss, sondern will, würde ich es lieber nicht wollen müssen.* (Myuller H., 2021, 34.) *(Aytishim kerakki, har kuni tun mening xohishimga qarshi **qora chamadonini** yig‘adi. Men nimani xohlamasam shu yuz berardi. Yaxshisi men*

hech narsani xohlamasligim kerak. Bu yerda bari meni xohish-irodamga teskari edi.)

Bu tasvir asardagi dahshatni aniq namoyon qiladi va o‘quvchiga matndagi umumiy tasvirni ishonarli yetkazish vazifasini bajaradi. Bunda lagerdagi kechalarning qo‘rqinchli ekani, qo‘riqchilarning so‘kinishlari, insonlarning g‘ururini toptalishi, ochlik, uyqusizlik kabilar surgundagilarning fojiasidan darak beradi. Har tun lagerdagilar uchun nimadir ko‘ngilsizlik bo‘lishi mumkin edi.

Nemis olimi Mayer Myullerning adabiy matnlarini tushunchalar va obyektlarni o‘rnatilgan tartib tuzilmalaridan olib tashlab va ularni moslashuvchan, ko‘p qatlamli kontekstga joylashtirish orqali qayta kodlash jarayoni sifatida tavsiflaydi. “Myuller atamalar va obyektlarni turli kontekstlarga ko‘chiradi, ular orqali predmetlar turli xil ma’nolarga ega bo‘ladi va shu bilan semantiklashuv jarayonlarini ochib beradi. Bu bilan Myuller predmetlarning hech qanday ma’noga singib ketmaydigan va hech qanday ma’no doirasidan tashqariga chiqmaydigan moddiy o‘lchamidan, ularning yod, funksional bo‘lmagan narsa ekanligidan, ayni paytda tilning moddiyligiga, uning fundamentalligiga mos kelishini ko‘rsatib beradi”. (Maier H., 2007, 59.)

Herta Myullerning yozish jarayoni bilan bog‘liq holda alohida ahamiyatga molik usul bu – loyihalash kerak bo‘lgan narsalarning poetikasi Myullerning ma’ruzalari, insholari va intervyularida aniq poetologik o‘lchovda va uning nasri yoki romanlarida yanada aniqroq o‘lchovda namoyon bo‘ladi.

Herta Myuller 1989-yilda Ruminiyadan G‘arbiy Berlinga ko‘chib o‘tgandan so‘ng darhol “Reisende auf einem Bein“ (Bir oyoqli sayohatchilar) asarini nashr ettiradi. Bu asar keng ommaga havola etilgandan so‘ng yozuvchi bir muncha mashhurlik olib keldi. Ushbu asarda bosh qahramonning Ruminiyadan G‘arbiy Berlinga ko‘chishi bilan birga Myullerning falsafiy g‘oyalari ham ochib berilgan. Bosh qahramon o‘zining shaxsiyatidan mamnun bo‘lmaganligidan hamda unga nisbatan jabr-sitamlar tufayli boshqa mamlakatdagi odamlarga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘ladi. Muallif, bu asarda ham birinchi navbatda, odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni predmetlar vositasida tasvirlashga e’tibor qaratadi, ya’ni bu bilan insonlar o‘rtasidagi begonalashish kayfiyatini ochib berishga erishadi.

Asarda 1980-yillar oxirida Ruminiya diktaturasini tark etgan va Berlinda yangi

hayot boshlamoqchi bo‘lgan Irene ismli qiz haqida hikoya qilinadi – Myullerning hayot yo‘li bosh qahramonda yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu romanni Yevropada surgun romani deb ham atashgan. Muyellerning so‘zlariga ko‘ra u Berlinga kelganida nemis millatiga mansub bo‘lishiga qaramay, bu mamlakatda boshpana topgan bo‘lsa ham oldin yashagan davlati va bu yerdagi madaniyat o‘rtasida gohida o‘zini begona his etardi. “Reisende auf einem Bein (Bir oyoqli sayohatchilar)” romanida ikki madaniyat: tanish va begona madaniyatlar bir-biriga mos kelmaydi, tafovutlar doimiy ravishda topiladi, takrorlanishlar va almashinuvlar sodir bo‘ladi va bu birinchi navbatda umumiy ona tili sathiga ta’sir qiladi.

Romanda ruminiyalik nemis qiz Irene hatto Berlinga kelganida, o‘zini mahalliy nemislarga bilan tanishtira olmaydi. U qanchalik urinmasin shu millat vakili bo‘lmasin, bu yerda o‘zini begona his qilar va nemis madaniyatiga ko‘nika olmasdi. Bu yerdagi odamlar unga begona edilar va u o‘zini yolg‘iz his qilar edi.

Muyeller romanlarida inson ruhiyati va ichki kechinmalari asarning asosiy mohiyati hisoblanadi. Asar ruhiyati tasviri haqida gap ketganda, avvalo, ulardagi ruhiyatga ishora qiluvchi detallar va shunday detallardan foydalanish mahoratiga to‘xtalib o‘tish lozim deb bilamiz. Shu o‘rinda aytish joizki, badiiy detal badiiy asar kompozitsiyasida o‘z o‘rnini topgandagina vazifasini bajara oladi. U yozuvchini ko‘p so‘zlikdan qaytaradi, ortiqcha ifoda usullaridan saqlaydi.

Ma’lumki, badiiy asarda rang-barang detallar ishlatiladi: predmet detali, holat detali, sharoit detali, nutqiy detal kabi. Vilyam Shekspirning “Otello” tragediyasidagi ro‘molcha, Abdulla Qahhorning “Anor” hikoyasidagi anor kabi detallar predmet detallarga misol bo‘la oladi. Kitob bo‘lib dunyoga kelgan asar borki, detallar asosiga qurilgan. Badiiy detal masalasi, ayniqsa, jahon adabiyotida salmoqli o‘rin tutadi. Birgina Anton Chexov asarlarini bunga misol qilish mumkin. Inson obrazini chizish, qahramon va personajlar xarakterini yaratish, ularning murakkab ichki dunyosini ko‘rsatishda badiiy detalning o‘rni beqiyos. (Muhammadiyeva F.. 2022)

Bunday jihatlar Muyellar romanlarida tasvirlangan sharoit, predmet, holat detallarida aniq namoyon bo‘ladi. Masalan, romandagi holat-vaziyatning detallarda badiiy dalillangan ifodasi ko‘nglida bezovtalik kayfiyati hukmron, oxiri yo‘q o‘ylar

qurshovida qolgan qahramon ruhiyatini to‘la namoyon qiladi. “*Da kamen Gedanken in Irenes Kopf und gingen. Und keiner hatte was mit ihr zu tun. Ihr* ***Koffer*** *stand neben dem Stiegenhaus, warf einen Schatten neben diye Tür. Und kein Gedanke drängte Irene zum Bleiben. Und keiner zum Gehen*”. (Myuller H.. 1989, 40.) *(Shu payt Irenaning hayoliga turli o‘ylar kelib ketdi. U bilan hech kimni ishi yo‘q edi. Uning* ***chamadoni*** *zinapoya yonida turar, eshikda bir soya tushib turardi. Irenni bu yerda qolishiga hech qanday moyillik yo‘q edi, lekin borarga boshqa joy ham yo‘q.)* Ushbu parchadagi chamadon, zinapoya va soya qahramon ruhiyatini ochuvchi detallardir. Bu elementlarsiz asar g‘oyasini ham, qahramon holatini ham anglash mushkul.

Yana bir sahna Irenning boshpanasizlar uyida qolishi va keyin o‘zining yangi uyiga qanday tashrif buyurishi tasvirlangan.

“*Irene trug den* ***Koffer*** *durchs Stiegenhaus hoch. Dann ging ein Flur durch sie hindurch. Dann eine Küche. Dann ein Bad. Dann ein Zimmer. Alles leere Wände. ... Der* ***Koffer*** *stand lange geschlossen im Flur, als wäre Irene nur halb am Leben. Sie konnte nicht denken, nicht gehen“* (Myuller H., 1989, 41.) *(Irena* ***chamadonni*** *ko‘tarib zinapoyadan yuqoriga chiqdi. Keyin koridordan o‘tib, keyin oshxona, keyin hammom va nihoyat bir xonaga kirdi. Xona bo‘m-bo‘sh.. devorlar bo‘m-bo‘sh. ... Uning* ***chamadoni*** *esa koridorda uzoq vaqt qolib ketdi, go‘yoki Irenaning bir bo‘lagi kabi. Shu topda u hech narsani o‘ylay olmas va qimirlay olmasdi.)* Qahramonning chamadoni, uning yagona yuki, uning bir bo‘lagi, lekin Irenaning fikrlari unga begona, chamadonlar ham sayohatchilar yoki mehmonlar kabi kelib ketuvchi buyumlardir.

*Xona*lar Irenning nigohidagi oddiy narsalar emas, chunki ular noma’lum odamlar kabi begona. Qahramon ichki makonni o‘z tanasi va ongini aniqlashtirish yoki kengaytirish orqali his qiladi. Romanda uyni ko‘zdan kechirish o‘ziga xos „sayohat“, xonalardagi bo‘m-bo‘sh devorlar Irenaning ichki bo‘shlig‘ini aks ettiradi. Irena uchun uyiga qaytib borishning iloji yo‘qligi, xona eshigi oldida turgan chamadon orqali ko‘rsatilgan. Irenaning jim turishi, irodasi va harakatlari sustligi - bu begonaligida edi. Sayohatchining eng muhim narsasi bu albatta chamadon, u esa

xuddi Irenaning qalbi kabi qulflangan holda edi.

Romanda, Myuller hayotida bo‘lgani kabi, Irena obrazi o‘zining tushunib bo‘lmas, hatto g‘ayrioddiyligi bilan namoyon bo‘ladi. U xona ichida turar ekan huddi uni kimdir kuzatayotgandek chamadonni ochmaydi, buyumlarini olmaydi. Pasport va fuqarolik guvohnomasini kutayotgan Irena Germaniyada umidsiz vaqtinchalik shu alpozda yashaydi. (Botsi P. 2005, 112.)

Butun asar davomida Irena bu shaharda begona sifatida namoyon bo‘ladi: u har qanday yangilik qilishdan bosh tortadi. U xayollarini, ichki qarama-qarshiliklarni yengish uchun shahar bo‘ylab ko‘p sayr qilib, odamlarni va ularning harakatlarini, ular o‘rtasida munosabatlarni kuzatadi, ularning xatti-harakatlarini o‘rganadi va madaniy farqlarni bartaraf etishning har qanday shaklini rad etadi.

Muallif Irenaning hayotini uzoqdan kuzatadi, uni narsalarda emas, balki ularning oqibatlarida aniqlashtiradi, ya’ni unga ”uy“ shaklida narsalar va odamlar bilan tabiiy, tanish munosabatda bo‘lishga imkon bermaydi.

Irena idrokining markaziy obyekti kiyim bo‘lib, bu uni odamlardan farqlash va ajratish belgisi yoki vositasi sifatida ko‘rsatiladi. Masalan uysizlar idorasidagi Federal razvedka xizmati xodimi Irenadan Ruminiya maxfiy xizmati bilan munosabatlari haqida so‘raydi, chunki Irena boshqa mamlakatdan kelgan odamlar kabi qora kostyum kiygan edi. Bu yerdagi odamlarning yuzlari va xarakter xususiyatlari faqat kiyimlari kabi bir xildek edi. Ularning kiyimlariga sinchkovlik bilan qarash orqali so‘roq-savol qilardilar.

Romanda detallar va odamlarni bir-biridan ajratib turuvchi nuqtayi nazar, Irenaning boshpana izlovchilarning kiyimlarini kuzatishida aniq ko‘rinadi. Masalan: *„Zwischen Hals und Schultern klaffte das Tuch.“ (Myuller H., 1989, 30.) (Bo‘yin va elka o‘rtasida ro‘mol bor edi.)*

Boshpanasizlar uyida ro‘mol o‘z egalarining nochorligini ayanchli tarzda ifodalaydi: oddiy, bu narsa aslida ro‘mol ham emas shunchaki mato bo‘lagi sifatida, badanga cho‘zilgan, alohida kiyim ham emas, bu boshpana izlovchilarning kimligini ko‘rsatib turadi. Bu mahkam bog‘langan mato ularning qaramlik va nochorliklarini aks ettiruvchi vosita edi.

Myuller nafaqat migratsiya va madaniy farqlar fonida kiyimni badiiy detal sifatida asarga kiritadi, balki romanda nemis tarixini o‘rganish haqida gap ketganda ham ishlatiladi, chunki Irena tarixni narsalar orqali qabul qiladi: Masalan: „*Im Second-Hand-Laden hingen die Kleider eingeteilt in Feldern. Kolonnen von Hemden, Jacken und Hosen. [...] Die Mäntel hingen im Hinterraum. Die Metallknöpfe und die Schnallen waren mit Grünspan bezogen. Die Mäntel hatten Kriege überlebt. Irene berührte sie nicht. Kleiderbügel wie Schultern. Das Tuch war hart. Hatte jahrelang Haut bedeckt.“* (Myuller H., 1989, 56.) (*Eski kiyimlar sotiladigan do‘konda kiyimlar alohida-alohida osilgan. Bo‘laklarda ko‘ylaklar, kurtkalar va shimlar. [...] Paltolar esa orqa xonada osilgan edi. Metall tugmalar va remenlar nikel bilan qoplangan. Paltolar urushni ko‘rgan. Irene ularga tegmadi. Kiyim ilgichlar xuddi odam yelkasiga o‘xshaydi. Ro‘mol esa xuddi yillar davomida ishlatilgandek qattiq edi.*)

Eski kiyimlar sotiladigan do‘kondagi eski kiyimlar Irenaga "bo‘laklar", ya’ni marshrutchi askarlarning qo‘shinlarini eslatadi. Muallif „Urushlardan omon qolgan“ paltolarning „nikel“ bilan qoplangan metall qismlari bilan asarni yanada boyitadi. Irenaning nigohida u kiyilgan paltolar go‘yo tirik, inson tanasiga aylanadi va unga tegishni istamaydi. Bu sahnada Irenaga kiyilgan kiyimlari o‘lik va tiriklar o‘rtasidagi dahshatli xotira tashuvchisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Irena do‘konda palto sotib olayotgan ayolni ko‘rganida bu holat yaqqol ko‘zga tashlanadi. „*Das Etikett mit dem Preis rieb der Frau mit dem pinkroten Haar am Nacken. Es sah aus wie eine Feldpostkarte. Diye Frau bezahlte den grünen Mantel. Riß diye Feldpostkarte ab. Zog den Mantel an. Ging hinaus auf die Straße.* (Myuller H., 1989, 63.) *(Paltoning narx yorlig‘i pushti sochli ayolning bo‘yniga ishqalandi. Bu dala otkritkasiga o‘xshardi. Ayol yashil palto uchun pul to‘ladi-da, yorliqni uzib tashladi so‘ng paltoni kiyib ko‘chaga chiqdi)*

Paltodagi narx yorlig‘i Irena uchun “pochta otkritkasi” kabi ko‘rinadi va o‘tmishini yodga soladi. Yorliq xaridorni bezovta qiladi va paltoni sotib olgach, darhol uzib oladi-da, yangi kiyimi bilan do‘kondan chiqib ketadi. Myuller bu yerda yaratgan “o‘zgarish” nemislar xotirasidagi bo‘shliqni ifodalaydi. Narx yorlig‘ini yirtib tashlashni o‘z tarixiga nisbatan allegorik repressiya harakati sifatida qabul

qilish mumkin. O‘tmishdagi “xotira”ni qayta tiklash o‘rniga, uni yo‘qqa chiqarish uchun narsa-buyumlar bilan aloqani uzadi. Bu shuni anglatadiki, bu yerda tasvirlangan narsa G‘arbiy Germaniya kapitalizmining rivojlanishi ma’qul deb hisoblagan tarixining boshlanishidir.

Qozoqboy Yo‘ldoshev aytganidek, “San’at va adabiyotda hayot timsol (obraz)lar orqali aks ettiriladi, ya’ni badiiy yaratiqda shunday konkret va betakror narsa-hodisalar tasvirlanadiki, umumlashtirish xususiyati aynan ularning konkretlik va betakrorligida mavjud bo‘ladi. Mantiqiy tushunchadan farq qilib, badiiy obraz tafakkur bilan birga sezimlarga ham, ta’sir ko‘rsatish xususiyati va qudratli hissiy-kechinmaviy ishontirish kuchiga ham egadir. Obrazlilik san’atga tegishli ekaniga ko‘ra ham, yuksak mahorat natijasi o‘laroq ham badiiylikning asosidir. Ayni obrazlilik xususiyatiga ega ekani bois badiiy asarlar estetik fazilat va qimmat kasb etadi.” (Qozoqboy Yo‘ldosh. 2016, 137.)

Herta Muyeller Nobel mukofotini olish chog‘ida so‘zlagan nutqida detallar poetikasi bilan bog‘liq o‘z hayotidan bir misol keltiradi “Hast du ein Tashentuch? (Ro‘molchang bormi)" nomli jumla o‘quvchini tafakkur qilishga undaydi. Hertaning bolaligida onasi har kuni shu savolni berardi. *“Hast du ein Tashentuch?”, fragte die Mutter jeden Morgen am Haustor, bevor ich auf die Straße ging. Ich hatte keines. Und weil ich keines hatte, ging ich noch mal ins Zimmer zurück und nahm mir ein Taschentuch. Ich hatte jeden Morgen keines, weil ich jeden Morgen auf die Frage wartete. Das Taschentuch war der Beweis, daß die Mutter mich am Morgen behütet. In den späteren Stunden und Dingen des Tages war ich auf mich selbst gestellt. Die Frage „Hast du ein Tashentuch?” war eine indirekte Zärtlichkeit.* (muller-lecture_ty.pdf 10.05.2011) *(Ro‘molchang bormi? Onam har kuni ertalab eshik oldida ko‘chaga chiqishimdan avval shu savolni berardi. Menda ro‘molcha bo‘lmasdi va men xonamga kirib uni olib chiqardim. Bilasizmi, men har kuni shu savolni kutardim va qayta xonamga kirib ro‘molchani olib chiqardim. Ro‘molcha onamning ertalabdan meni himoya qilishiga dalil edi. Kunning keyingi vaqtlarida men o‘zimga savol berardim. Ro‘molchang bormi? Bu men uchun mehr edi.)*

Ro‘molcha haqidagi savol „bilvosita noziklik“ dir. Mato ya’ni narsa bola va

ona o‘rtasida mehr-muhabbatni, og‘zaki ifoda etib bo‘lmaydigan mehr-oqibat munosabatlarini yaratadi. Matoda mehr „savol sifatida niqoblangan“ tasvirlab bo‘lmaydigan tuyg‘uni anglatadi. Bundan tashqari, bu narsa kun davomida onaning mehrini eslatib turadi, go‘yoki onasi ham ro‘molcha bilan bolaning yonida bo‘ladi.

Muyeller og‘ir damlarida yolg‘iz emasligini his qiladi, chunki onasining g‘amxo‘rligini eslatuvchi ro‘molcha doim u bilan birga va unga kuch bag‘ishlaydi hamda o‘tmish xotiralarini yodga soladi

Myuller ta’rifida ro‘molcha, birinchi navbatda, tasalli va shifo vositasi, azob-uqubatlarni, kasallik va og‘riqlarni bartaraf etish vazifasini bajaradi – shu bilan birga zo‘ravonliklarni ham eslatadi. Chunki Banatdagi kundalik qishloq hayotida yuz bergan voqealar, kamsitishlar, zo‘ravonliklar uni bir zum bo‘lsa-da hayolidan chetga chiqmas edi. Umuman olganda muallif o‘z hayoti davomida aks etgan narsalarni keyinchalik asarlarida badiiy detallar orqali akslantirishga erisha olgan deyishimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, detallar muayyan yuz berayotgan voqelikni umumlashtirish bilan birga badiiy asarda xarakterlarning ochilishiga yordam beradi. Detallar orqali asarning mazmun – mohiyati anglashiladi, bundan tashqari detal asarning estetik qiymatini oshirish bilan birga uning o‘quvchi ongiga kirib borishini ta’minlaydi.

Herta Muyeller badiiy detalning qanday imkoniyatlarga ega ekanini o‘z asarlarida ko‘rsata olgan. Ular orqali asar g‘oyasini o‘quvchiga yetkazishda samarali foydalangan. Bu esa yozuvchi asarlarining salmog‘ini oshirishga xizmat qilgan. Shu jihatdan olib qaraganda muallif har bir asarida detallashtirilgan tasvirga jiddiy e’tibor qaratib, narsa, holat detallari vositasida o‘z qahramonlarining ichki tuyg‘ulari va ruhiyatini ishonarli tasvirlagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent, 2002. – B. 324
2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent, 2007. – B. 228

3. Muhammadiyeva F. Zamonaviy o‘zbek nasrida badiiy detal masalasi. Galaxy international interdisciplinary research journal (giirj) issn (e): 2347-6915 vol. 10, issuye 10, oct. (2022)
4. Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent, 2016.
5. Bozzi Paola: Der fremde Blick. Zum Werk Herta Müllers, – Würzburg 2005. – S 112.
6. Maiyer H., Johannsen. Schon Brigid Haines hat das Beharren auf dem Detail, das in Müllers Umgang mit Dingen deutlich wird, als „Micro-Politics of Resistancye“ bezeichnet. 2007, – S. 159
7. Müller H. Atemschaukel, Fischer Verlag, der 6. Auflage. – Frankfurt. 2021.
8. Müller H. Reisende auf einem Bein. – Berlin, 1989 – S. 176
9. Myeller H. Jedes Wort weiß etwas vom Teufelskreis. Nobelvorlesung vom. 2009, – Stockholm, (muller-lecture_ty.pdf 10.05.2011)

REFERENCES

1. Boboyev T. (2002) Basics of literary studies. Tashkent. P. 324
2. Kuronov D. (2007) Introduction to literary studies. Tashkent. P. 228
3. Muhammadiyeva F. (2022) The issue of artistic detail in modern Uzbek prose. Galaxy international interdisciplinary research journal (giirj) issn (e): 2347-6915 vol. 10, issue 10, oct.
4. Kazaqboy Yoldosh, Muhayyo Yoldosh. (2016) Fundamentals of artistic analysis. Tashkent.
5. Bozzi Paola. (2005) Der fremde Blick. Zum Werk Herta Müllers, Würzburg. S. 112.
6. Maier H., Johannsen. (2007) Schon Brigid Haines hat das Beharren auf dem Detail, das in Müllers Umgang mit Dingen deutlich wird, als „Micro-Politics of Resistancee“ bezeichnet. S. 159
7. Müller H. (2021) Atemschaukel, Fischer Verlag, der 6. Auflage. - Frankfurt.
8. Müller H. (1989) Reisende auf einem Bein. Berlin, P.176
9. Myeller H. (2009) Jedes Wort weiß etwas vom Teufelskreis. Nobelworlesung vom. Stockholm. (muller-lecture_ty.pdf 10.05.2011)